



BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Sharipova Sevara Erkin qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti

Tel: +998 99 6642040

sharipovasevara0111@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14642930>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili fanini o'qitish jarayonida, o'qitish metodlarini qo'llash, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishning samarali usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, o'qitish metodlar, ta'limda innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, adashgan so'z metodi

«Innovatsiya» so'zi ingliz tilidan kelib chiqqan, uning tarjimasi yangilanish, o'zgartirish, yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Innovatsiya deb yangi ilmiy texnik yutuqlardan samarali foydalanishga aytiladi. Bu holatni ilmiy-ijodiy faoliyatdagi muhitga muvofiqlashtirish, uning samarasini oshirish respublikamizdagi fan imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga katta yordam beradi. Bu jarayonda asosiy e'tibor yosh avlodning eng ratsional faoliyatiga qaratiladi. Chunki innovatsion g'oyalar jamiyat taraqqiyoti uchun juda kuchli samara beradi. Bunday g'oyalarni rivojlantirishda novatorlikning o'rnini katta.

O'qitish metodlari – bu ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga yetkazish va rivojlantirishda foydalaniladigan usullar va uslublardir. O'qitish metodlari ta'limning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin.

1. Aktiv metod - dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikka

nisbatan fikrlashga-mulohaza yuritishga undaydi.

2. Passiv metod - dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha

bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi.

3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi.

Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi

Ta'limdagi innovatsiyalar quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:





- ❖ Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;
- ❖ O'quvchilarning kognitiv faolligini faollashtirish;
- ❖ Ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish;
- ❖ O'quv materialining metodika va didaktika nuqtai nazaridan o'zgartirishlari.
- ❖ Ta'limga yondashuv - bu yangi texnologiyalar uchun asos bo'lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to'plami.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi

shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikmava malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Innovatsion texnologiyalarning afzalliklari:

1. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqishni oshiradi.
2. Ta'lim jarayonini jonli va interaktiv qiladi.
3. Bilimlarni tezroq o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.
4. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqot o'rnatadi.
5. O'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ona tili darslarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va o'quvchilarda mustaqil ishlash, shuningdek, ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda "Juftlikda ishlash", "Kichik guruhlarda ishlash", "Daraxt yechimi", "Tugallanmagan gap mashqi", "Charxpalak", "Adashgan so'zni topish", "Chalkash ma'lumotlar", "Alifbo", "Tarozi", "Loto", "Qora quti" kabi metodlardan foydalanish o'quvchi mehnati samaradorligini ta'minlaydi

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida **adashgan so'zni topish metodi** o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, e'tiborini mustahkamlash va grammatik qoidalarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu metod innovatsion va interaktiv usul sifatida qo'llaniladi.

Adashgan so'zni topish metodining mohiyati Dars jarayonida o'qituvchi yoki dasturiy ta'minot yordamida matn yoki gap ichida ataylab noto'g'ri yozilgan





yoki mavzuga aloqasiz soʻzlar beriladi. Oʻquvchilar esa ushbu adashgan soʻzni topib, uni toʻgʻri holatga keltirishi yoki izoh berishi kerak.

Ushbu metodning turlari

1. Matndan adashgan soʻzni toppish

Oʻqituvchi kichik matn taqdim qiladi. Oʻquvchilar ushbu matndan mantiqan yoki grammatik jihatdan notoʻgʻri boʻlgan soʻzni aniqlaydi.

Misol:

Bahor kelganda daraxtlar gullab, qushlar qaytib keladi. Oyoq kiyim sotuvchi bozorda koʻpchilikni jalb qildi.

Adashgan soʻz: *Oyoq kiyim* (Matn mavzusi bahor va tabiat haqida, bu yerda mavzuga aloqasiz soʻz ishlatilgan).

2. Grammatik xatolarni toppish

Gap yoki matn ichida ataylab grammatik xato kiritiladi. Oʻquvchilar uni topib, toʻgʻrilashi kerak.

Misol: *Men kitob oʻqishni yoqtiramok.*

Adashgan soʻz: *yoqtiramok* (Toʻgʻri shakli: *yoqtiraman*).

3. Lugʻaviy adashgan soʻzlar

Soʻzlar orasiga lugʻaviy jihatdan mavzuga toʻgʻri kelmaydigan soʻz qoʻshiladi.

Misol: Maktabimiz *bogʻida olma, gilos, toʻrtburchak, oʻrik daraxtlari bor.*

Adashgan soʻz: *toʻrtburchak* (Bu soʻz daraxt nomlari orasida mavzuga toʻgʻri kelmaydi).

4. Matnda ortiqcha soʻzni toppish

Oʻquvchilardan matnda ortiqcha boʻlgan, keraksiz yoki takrorlangan soʻzni aniqlash soʻraladi.

Misol: U bugun juda, juda charchagan edi.

Ortiqcha soʻz: *juda* (takrorlangan).

Darsda qoʻllash usullari

1. Juftlik yoki guruhlarda ishlash

○ Oʻquvchilar juftlik yoki kichik guruhlarda adashgan soʻzlarni topib, muhokama qilishadi.


2. Raqamli texnologiyalar yordamida

○ Quizizz, Kahoot kabi platformalarda test shaklida berish.

3. Matn bilan ishlash

○ Kichik hikoya yoki maqolalar berib, ulardan adashgan soʻzni aniqlash va tuzatish.

4. Oʻyin shaklida





○ O'qituvchi adashgan so'zlar yozilgan kartochkalarni tarqatadi va o'quvchilar ularni to'g'rilashadi.

Adashgan so'zni topish metodining foydali jihatlari

- O'quvchilarda e'tiborni oshiradi va tezkor fikrlashni rivojlantiradi.
- Grammatik va lug'aviy bilimlarni mustahkamlaydi.
- O'quvchilarning xatolarni topish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.
- O'yin va interaktiv mashg'ulot shaklida bo'lgani uchun darsni qiziqarli qiladi.

Bu metodni turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlatish mumkin. Har bir mavzuga mos ravishda adashgan so'zlar tanlanadi va ta'lim jarayonida samarali natijaga erishiladi

Xulosa qilib aytganda, ta'limda innovatsion texnologiyalar har bir o'quvchining qobiliyati va o'rganish sur'atiga moslashtirilgan ta'lim tizimini yaratish imkonini beradi, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ushbu jihatlar innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish va kelajakda raqobatbardosh kadrlar yetishtirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G.Muxin.-Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.-97 p.
2. Gushchin Yu.V. Oliy ta'limda interfaol o'qitish usullari // "Dubna" Xalqaro tabiat, jamiyat va inson universitetining psixologik jurnali, 2012. - No 2. - B. 1-18..
- 3 Olimov S.S. THE INNOVATION PROCESS IS A PRIORITY IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SCIENCES. – 2021.
- 4 Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish : Monografiya
- 5 www.ziyonet.uz

